**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI HUZURIDAGI YURIDIK KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

# MUALLIFLIK HUQUQI VA TURDOSH HUQUQLAR FANI BO‘YICHA O‘QUV DASTURI

**Toshkent 2025**

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil __-iyun kuni tasdiqlangan “Patent vakili” mutaxassisligi bo‘yicha o‘quv reja bilan fan nomi va hajmi belgilangan.

Fan dasturi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 19-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 171-son qarori asosida ishlab chiqilgan.

Fan dasturi O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutida ishlab chiqildi.

## O‘QUV FANINING DOLZARBLIGI VA OLIY KASBIY TA’LIM DASTURIDAGI O‘RNI

Ushbu fan mualliflik huquqi, mualliflar mulkiy huquqlarini boshqarish va huquq egalariga haq to‘lash, turdosh huquqlar, turdosh huquqlar subyektlari va ularning shaxsiy huquqlari hamda subyektlariga haq to‘lash tartibi kabi masalalarni qamrab olgan. Shuningdek, mazkur fanning predmetini o‘rganish jarayonida telekommunikatsiyalar tarmog‘ida mualliflik huquqi muhofazasini ta’minlash choralarini o‘rganish asosiy maqsad qilingan.

“Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar” fani O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil __-iyun kuni tasdiqlangan “Patent vakili” mutaxassisligi bo‘yicha o‘quv rejaning ixtisoslik fanlari blokiga kiritilgan fan bo‘lib, patent vakili sifatida faoliyatni amalga oshirish istagini bildirgan jismoniy shaxs – patent vakilligiga nomzodlarga (keyingi o‘rinlarda – nomzod deb yuritiladi) o‘qitiladi.

## O‘QUV FANINING MAQSADI VA VAZIFASI

Fanni o‘qitishdan **maqsad** – tinglovchilarga mualliflik huquqi va turdosh huquqlarga oid asosiy manba va institutlar haqida ma’lumot berish hisoblanadi.

Fanning vazifalari:

- mualliflik huquqi va turdosh huquqlar sohasidagi xalqaro xujjatlar va qonunchilikni tahlil etish;
- mualliflik huquqi va turdosh huquqlar sohasidagi xalqaro tashkilotlar faoliyatini o‘rganish;
- mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni muhofaza qilish masalalarini o‘rganish;
- mualliflik huquqi va turdosh huquqlar himoyasi bilan bog‘liq masalalarni muhokama qilish;
- mualliflik huquqi va turdosh huquqlar sohasida ilmiy-pedagogik va amaliy faoliyat olib borish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Fan bo‘yicha nomzodlarning bilim, ko‘nikma va malakalariga quyidagi talablar qo‘yiladi.

***Nomzod:***

– mualliflarning shaxsiy huquqlari tizimi va himoyasi, turdosh huquqlar vujudga kelishi, obyektlari va huquqiy muhofazasi haqida ***tasavvurga ega bo‘lishi;***

– mualliflik huquqida qo‘llanadigan shartnomalar hamda turdosh huquqlar subyektlari va ularning shaxsiy huquqlari haqida nazariy va amaliy ***bilimlarga ega bo‘lishi;***

– mualliflar mulkiy huquqlarini boshqarish va huquq egalariga haq to‘lash, turdosh huquqlar sub’ektlariga haq to‘lash tartibi hamda telekommunikatsiyalar tarmog‘ida mualliflik huquqi muhofazasini ta’minlash choralarini ko‘ra olish ***ko‘nikmasiga ega bo‘lishi*** lozim.

## MAVZULAR REJASI

| **№** | **Mashg‘ulotlarning mavzusi** | **Jami o`quv soatlari** | **Shu jumladan,** | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | Ma`ruza | Seminar | Amaliy mashg`ulot |
| 1 | Mualliflik huquqi tushunchasi va kelib chiqish tarixi | **4** | 2 | 2 | - |
| 2 | Turdosh huquqlar tushunchasi, uning mazmun mohiyati | **8** | 2 | 2 | 4 |
| 3 | Mualliflik huquqining subyektlari va obyektlari | **6** | 2 | 2 | 2 |
| 4 | Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar: xalqaro hujjatlar va milliy qonunchilik | **4** | 2 | 2 | - |
| | Oraliq nazorat | **2** | - | - | 2 |
| 5 | Mualliflik huquqi va turdosh huquqlarda mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlar | **4** | 2 | 2 | - |
| 6 | Mualliflik huquqi va turdosh huquqlarda shartnomalar | **12** | 2 | 2 | 8 |
| 7 | Mualliflik huquqida mulkiy huquqlarni jamoaviy boshqarish | **4** | 2 | 2 | - |
| 8 | EHM uchun dasturlar va ma’lumotlar bazasini himoya qilish | **4** | 2 | 2 | - |
| 9 | Mualliflik huquqini fuqarolik-huquqiy himoya qilish | **8** | 2 | 2 | 4 |
| 10 | Mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni buzganlik uchun javobgarlik masalasi | **6** | 2 | 2 | 2 |
| | Yakuniy nazorat | **6** | - | - | 6 |
| | **JAMI** | **68** | **20** | **20** | **28** |

## ASOSIY NAZARIY QISM (MA’RUZA MASHG‘ULOTLARI)

**1-mavzu. Mualliflik huquqi tushunchasi va kelib chiqish tarixi.**

Mualliflik huquqi tushunchasi. Uning asosiy tamoyillari va mazmuni. Mualliflik huquqining maqsadi va vazifalari. Mualliflik huquqining xalqaro normalari. Mualliflik huquqi subyektlari va obyektlari.

**2-mavzu. Turdosh huquqlar tushunchasi, uning mazmun mohiyati.**

Turdosh huquqlar tushunchasi. Turdosh huquqlarning paydo bo‘lishi. Turdosh huquqlar va mualliflik huquqi o‘rtasidagi farqli jihatlar. Turdosh huquqlarni muhofaza qilish muddatlari. O‘zbekiston qonunchiligida turdosh huquqlar.

**3-mavzu. Mualliflik huquqining subyektlari va obyektlari.**

Mualliflik huquqining subyektlari. Muallif tushunchasi. Qo‘shma mualliflik. Mualliflik huquqining boshqa subyektlari. Mualliflik huquqi obyektlari tushunchasi. Yozma asarlar. Audiovizual asarlar. Mualliflik huquqi obyektlariga kirmaydigan asarlar. Mualliflik huquqining muddatlari.

**4-mavzu. Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar: xalqaro hujjatlar va milliy qonunchilik.**

O‘zbekistonda mualliflik huquqini nazorat qiluvchi davlat organlari. Adliya vazirligi Intelektual mulk departamenti hamda “Intelektual mulk markazi” davlat muassasining asosiy faoliyati. Mualliflik va turdosh huquqlarni buzilishiga qarshi xalqaro ta’sir choralari. Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar bo‘yicha asosiy xalqaro hujjatlar: Bern konvensiyasi (1886), Rim konvensiyasi (1961), TRIPS kelishuvi (1994).

**ORALIQ NAZORAT**

O‘quv dasturining 1-4-mavzulari bo‘yicha suhbat shaklidagi oraliq nazoratlarni o‘tkazish va baholash, bu turdagi oraliq nazoratni o‘tkazish bo‘yicha metodik materiallar asosida amalga oshiriladi.

**5-mavzu. Mualliflik huquqi va turdosh huquqlarda mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlar.**

Mualliflik huquqida mulkiy va nomulkiy huquqlar tushunchasi. Shaxsiy nomulkiy huquqlarning mazmuni. Mulkiy huquqlar tushunchasi. Mualliflik huquqi va turdosh huquqlarda mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlar muddati.

**6-mavzu. Mualliflik huquqi va turdosh huquqlarda shartnomalar.**

Mualliflik shartnomasining tushunchasi va ahamiyati. Mualliflik shartnomasining huquqiy asoslari. Mualliflik shartnomasining subyektlari. Mualliflik shartnomasi predmeti. Mualliflik shartnomasida belgilanishi lozim boʻlgan muhim shartlar. Raqamli muhitda mualliflik shartnomalari. Mualliflik shartnomasi turlari.

**7-mavzu. Mualliflik huquqida mulkiy huquqlarni jamoaviy boshqarish.**

Mualliflik huquqlarini jamoaviy boshqarish tushunchasi. Mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlar. Mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlarning faoliyati. Mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlarning huquqlari. Mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlarning majburiyatlari. Mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlar faoliyatini nazorat qilish.

**8-mavzu. EHM uchun dasturlar va ma’lumotlar bazasini himoya qilish.**

EHM dasturlari va ma’lumotlar bazasining huquqiy maqomi. Mualliflik huquqi obyektlari sifatida EHM dasturlari va ma’lumotlar bazalari tan olinishi. Ma’lumotlar bazalaridagi axborotni yigʻish va tartiblashga boʻlgan huquqiy talablar.

**9-mavzu. Mualliflik huquqini fuqarolik-huquqiy himoya qilish.**

Mualliflik huquqi va uning himoya qilinishining huquqiy asoslari. Mualliflik huquqini roʻyxatdan oʻtkazish. Mualliflik huquqlarini buzish holatlari. Mualliflik huquqini himoya qilishda sudga murojaat qilish. Muallifning huquqlarini saqlash va himoya qilish. Mualliflik huquqi buzilishi bilan bogʻliq fuqarolik da’volarini koʻrish tartibi.

**10-mavzu. Mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni buzganlik uchun javobgarlik masalasi.**

Mualliflik huquqi buzilishining umumiy tushunchasi va fuqarolik-huquqiy javobgarlikka sabab boʻlishi. Mualliflik huquqlarini buzish holatida fuqarolik javobgarligi. Sudda mualliflik huquqi buzilishi bilan bogʻliq da’volarni koʻrish tartibi. Mualliflik huquqi buzilishi bilan bogʻliq ma’naviy zararni toʻlash. Turdosh huquqlar buzilishi va ularning fuqarolik-huquqiy javobgarligi. Mualliflik huquqlarini buzish bilan bogʻliq jinoiy javobgarlik.

## SEMINAR MASHGʻULOTLARI BOʻYICHA KOʻRSATMA VA TAVSIYALAR

Barcha seminar mashgʻulotlari trening shaklida tashkil qilinadi.

*Seminar mashgʻulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:*

1. Mualliflar shaxsiy nomulkiy va mulkiy huquqlari.
2. Mualliflar huquqlarini himoya qilish muddatlari.
3. Xizmat asarlariga nisbatan mualliflik huquqining qoʻllanishi.
4. Mualliflik shartnomalalari.
5. Buyurtma shartnomalari.
6. Litsenziya shartnomalari.
7. Shartnomaga koʻra mualliflik huquqini uchinchi shaxslarga oʻtkazish tartibi.

8. Mualliflar mulkiy huquqlarini jaamoaviy boshqarish huquqi.

9. Mualliflar mulkiy huquqlarini jamoaviy boshqaruvchi tashkilotlarni tuzish tartibi.

10. Xorijiy davlatlar mualliflariga tegishli haqni o‘tkazib berish tartibi.

11. Turdosh huquqlarning vujudga kelishi.

12. Turdosh huquqlar ob’ektlari turlari va tizimi.

13. Turdosh huquqlarni muhofaza qilish.

14. Turdosh huquqlar sub’ektlari huquqlarining vujudga kelishi.

15. Turdosh huquqlar sub’ektlarining shaxsiy nomulkiy va shaxsiy mulkiy huquqlari.

## AMALIY MASHG‘ULOTLAR BO‘YICHA KO‘RSATMA VA TAVSIYALAR

**Amaliy mashg‘ulotlar quyidagi mavzular bo‘yicha tashkil qilinadi:**

Mualliflik huquqida qo‘llanadigan shartnomalar;

Mualliflar mulkiy huquqlarini boshqarish va huquq egalariga haq to‘lash;

Turdosh huquqlar sub’ektlariga haq to‘lash tartibi;

Telekommunikatsiyalar tarmog‘ida mualliflik huquqi muhofazasini ta’minlash choralari.

Amaliy mashg‘ulotlar davomida tinglovchilar mualliflar mulkiy huquqlarini boshqarish, huquq egalariga haq to‘lash va turdosh huquqlar subyektlariga haq to‘lash tartibi hamda telekommunikatsiyalar tarmog‘ida mualliflik huquqi muhofazasini ta’minlash choralariga oid tegishli harakatlarni bajarish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari lozim va ular bo‘yicha fikr yuritish maqsadida amaliy topshiriqlarni (tegishli protsessual hujjatlar tuzish, muammoli masalalarni yechish va h.k.) bajaradilar. Amaliy topshiriqlarini bajarishda tinglovchilar tegishli amaldagi qonun normalariga, amaliy tajribasi va o‘quv kursi davomida olgan bilimlarga tayanib, ularni asoslab bajarishlari kerak.

## MUSTAQIL TA’LIM VA MUSTAQIL ISHLAR

*Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:*

1. Mualliflarning shaxsiy huquqlari tizimi va himoyasi
2. Mualliflik huquqida qo‘llanadigan shartnomalar
3. Mualliflar mulkiy huquqlarini boshqarish va huquq egalariga haq to‘lash
4. Turdosh huquqlar vujudga kelishi, ob’ektlari va huquqiy muhofazasi
5. Turdosh huquqlar sub’ektlari va ularning shaxsiy huquqlari
6. Turdosh huquqlar sub’ektlariga haq to‘lash tartibi
7. Telekommunikatsiyalar tarmog‘ida mualliflik huquqi muhofazasini ta’minlash choralari

## O‘QUV VA ISHLAB CHIQARISH AMALIYOTLARI

(O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Intellektual mulk departamenti bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi)

## O‘QUV DASTURINI O‘ZLASHTIRISH VA TA’LIM JARAYONLARINI TA’MINLASHGA MO‘LJALLANGAN O‘QUV VA O‘QUV-METODIK MATERIALLAR

Tasdiqlangan navbatchilik jadvaliga muvofiq kafedralar professor-o‘qituvchilari tinglovchilarga maslahatlar berib boradilar.

*O‘quv materiallari:*

ma’ruza fondlari (shu jumladan, elektron shakldagi) va fan bo‘yicha o‘quv qo‘llanma, tarqatma materiallar;

multimedia materiallari (slaydlar, prezentatsiyalar va h.k.).

O‘quv materiallari Axborot-resurs markazida bosma hamda elektron shaklda saqlanadi.

*O‘quv-metodik materiallar:*

test (yoki nazorat savollari) yoxud masofaviy topshiriqlar;

amaliy topshiriqlar (masalalar yoki kazus va h.k.).

*O‘quv dasturini amalga oshirish uchun zarur texnik ta’minoi:*

shaxsiy kompyuter – o‘qituvchining avtomatlashtirilgan ish joyi;

“ppt (pptx)”, “doc (docx)”, “xlsx”, “mp3” va boshqa h.k. formatdagi fayllar bilan ishlash uchun dasturiy ta’minotlar;

multimedia qurilmasi, ekran yoki smart-televizor.

## YAKUNIY NAZORAT

O‘quv dasturining barcha mavzulari bo‘yicha suhbat (yozma ish) shaklidagi yakuniy nazoratlarni o‘tkazish va baholash, “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar” fanidan yakuniy sinovlarni (sinov va suhbat qabul qilish) o‘tkazish metodikasi va ularni qabul qilish uchun topshiriq va savollarni nazarda tutuvchi, tinglovchilarda javob varaqalari mavjud bo‘lishi belgilab qo‘yilgan metodik materiallar asosida amalga oshiriladi.

## ASOSIY VA QO‘SHIMCHA O‘QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBAALARI

## O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari:

Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruza.– T.: O‘zbekiston, 2017. – 48b

Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak.– T.: O‘zbekiston, 2017. – 104 b.

Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.

Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 592 b.

Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2018. – 508 b.

Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2019. – 400 b.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so‘zi, 2020 yil 24 yanv.

## O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi:

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi.

O‘zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi.

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi.

O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi.

O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida” qonuni.

O‘zbekiston Respublikasining “Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risida”gi Qonuni.

O‘zbekiston Respublikasining “Tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to‘g‘risida” Qonuni

O‘zbekiston Respublikasining “Integral mikrosxemalar topologiyalarini huquqiy muhofaza qilish to‘g‘risida” Qonuni

## Xalqaro-huquqiy hujjatlar:

Adabiy va badiiy asarlarni muhofaza qilish to‘g‘risidagi Bern Konvensiyasi // https://lex.uz/docs/-1310607.

Butunjahon intellektual mulk tashkilotini ta’sis etish konvensiyasi // https://lex.uz/docs/-2600169.

BIMTning mualliflik huquqi bo‘yicha shartnomasi va BIMTning mualliflik huquqi bo‘yicha shartnomasi yuzasidan kelishilgan murojaatlar // https://lex.uz/docs/4326816.

BIMTning ijrolar va fonogrammalar bo‘yicha shartnomasi va BIMTning ijrolar va fonogrammalar bo‘yicha shartnomasi yuzasidan kelishilgan murojaatlar // https://lex.uz/docs/4330942.

**Maxsus adabiyotlar:**

Intellektual mulk. Darslik. Mas’ul muharrirlar: yu.f.d., prof., O.Oqyulov, yu.f.d. (PhD), dotsent N.E.Gafurova // Mualliflar jamoasi. –T.: TDYuU nashriyoti , 2019. – 588 bet.

Intellectual property: Law & the information society. Cases & Materials. Fifth Edition, 2021. /James Boyle - William Neal Reynolds, Professor of Law Duke Law School; Jennifer Jenkins -Clinical Professor of Law (Teaching) & Director, Center for the Study of the Public Domain, Duke Law School. // Copyright ©2021 James Boyle and Jennifer Jenkins.

“В хорошей компании”. Вопросы интеллектуальной собственности в франчайзинге. /Серия “Интеллектуальная собственность для бизнеса”. Номер 5. // WIPO, 2019. Всемирная организatsiя интеллектуальной собственности 34, chemin des Colombettes, Case postale 18,CH-1211 Geneva 20, Switzerland. / ISBN: 978-92-805-2491-8.

От бумаги до цифровой платформы: Издательское дело, интеллектуальная собственность и цифровая революция. // WIPO, 2019. Всемирная организatsiя интеллектуальной собственности 34, chemin des Colombettes, Case postale 18, CH-1211 Geneva 20, Switzerland./DOI: 10.34667/tind.47042. ISBN: 978-92-805-3448-1 (печатная версия). ISBN: 978-92-805-3449-8 (онлайновая версия).

Коммерциализация идей. Руководство по интеллектуальной собственности для стартапов. // WIPO, 2019. Всемирная организация интеллектуальной собственности 34,chemin des Colombettes, Case postale 18, CH-1211 Geneva 20, Switzerland. /ISBN: 978-92-805-3282-1. DOI: 10.34667/tind.44185.

Ежегодный обзор Мадридской системы, 2023 год (резюме). Международная регистрация знаков // WIPO, 2023. Всемирная организatsiя

интеллектуальной собственности 34, chemindes Colombettes, Case postale 18, CH-1211 Geneva 20, Switzerland.

Понимание авторского права и смежных прав // World Intellectual Property Organization 34, chemin des Colombettes, P.O. Box 18. CH-1211 Geneva 20, Switzerland. / ISBN: 978-92-805-2804-6.

Что такое интеллектуальная собственность? // WIPO, 2020. Всемирная организatsія интеллектуальной собственности 34, chemin des Colombettes, Case postale 18, CH-1211 Geneva 20, Switzerland. / ISBN 978-92-805-3223-4.

Toshev B.N., Nabiev F. Intellektual mulk huquqi: tovar belgilarining huquqiy muhofazasi.O‘quv qo‘llanma. – T., 2019.

Oqyulov O. Intellektual mulk huquqi: umumiy qoidalar va alohida obyektlar. Darslik. – T.,2003.

G‘afurov A.B. Intellektual mulk huquqini himoya qilishning dolzarb masalalari. Monografiya.– T., 2017.

Raxmatov A.I., Yakubova I.B. Patent huquqi. Darslik. – T.: YUMOM nashriyoti, 2021. – 123–142-bet.

Intellektual mulk. Darslik. Mas’ul muharrirlar: yu.f.d., professor O.Oqyulov, yu.f.f.d. (PhD) N.E.Gafurova // Mualliflar jamoasi. – T.: TDYU nashriyoti, 2020. – 520–583-betlar.

O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga sharh: ilmiy sharhlar. 3-jild. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – Toshkent: Baktriya Press, 2013. – 367–408-bet.

Yuldashov A.A. O‘zbekistonda mualliflik va turdosh huquqlarni buzganlik uchun javobgarlik kuchaytirilishining dolzarbligi. Review of law sciences, № 2, 2020. - B. 134-137. // https://cyberleninka.ru/article/n/zbekistonda-mualliflik-va-turdosh-u-u-larni-buzganlik-uchun-zhavobgarlik-kuchaytirilishining-dolzarbligi.

Rakhmonova M.N., Bryliova V.A. Mechanism of protection of rights to trademarks in Uzbekistan // Archive of Conferences. – 2021. – P. 110-113. // https://www.conferencepublication.com/index.php/aoc/article/view/1614/1700.

Yakubova I.B., Yakubova A.B. Problems Of Copyright Protection: Plagiary And Piracy On The Internet // Turkish Journal of Computer and Mathematics Education. – 2021. – T. 12. – №. 4. – C. 1132-1135. // https://turcomat.org/index.php/turkbilmat/article/view/625/425.

Bahramova M.N. Raqamli (elektron) arbitraj qo‘llanilishi xalqaro tajribasi (Amerika Arbitraj Assotsiatsiyasi, CyberSettle va Butunjahon Intellektual Mulk Tashkiloti misolida) // Jamiyat va innovatsiyalar. – 2022. – T. 3. – №. 3/S. – B. 326-336. // https://www.inscience.uz/index.php/socinov/article/view/1920/2098.

Intellektual mulk. Darslik. Mas’ul muharrirlar: yu.f.d., professor O.Oqyulov, yu.f.f.d. (PhD) N.E.Gafurova // Mualliflar jamoasi. – T.: TDYU nashriyoti, 2020.

O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga sharh: ilmiy sharhlar. 3-jild. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – Toshkent: Baktriya Press, 2013.

Yakubova I.B. Mualliflik huquqi. O‘quv qo‘llanma. – T.: TDYU nashriyoti, 2020.

Abdullin A.I. Intellekt i pravo: pravovaya oxrana intellektualnoy sobstvennosti : Uchebnoe posobie. – M., 2001.

Avtorskoe pravo XX1 vek. Sbornik nauchnыx statey. – M. Rossiyskaya akademiya pravosudiya. 2010.

Akramxodjaeva Z.S. Intellektual mulk huquqini himoya qilishning takomillashtirish istiqbollari. –T.:TDYU. 2008.

Bezbaxa V.V. Grajdanskoe i torgovoe pravo zarubejnk stran. – M., 2004.

Belov V.V., Vitaliev G.V., Denisov G.M.. Intellektualnaya sobstvennost. Zakonodatelstvo i praktika yego primeneniya. – M., 2002.

Bliznes I.A. Pravovoe obespechenie intellektualnoy sobstvennosti. – M., 2000.

Boguslavskiy M.M. Mejdunaronoe chastnoe pravo. – M., 2000

Volыnkina M.V. Innovatsionnoe zakonodatelstvo Rossii. – M., 2005

Grishaev S.P. Intellektualnaya sobstvennost. Uchebnoe posobie. – M., 2008.

Dejina I.G. Problemы prav na intellektualnuyu sobstvennost. – M., 2003.

Zokirov I.B.. O‘zbekiston Fuqarolik huquqi. – T., 1998.

Kalyagin V.O. Intellektualnaya sobstvennost (Isklyuchitelnыe prava). Uchebnik. – M., 2000.

## V. Veb-saytlar:

http://allpravo.ru
http://www.lawportal.ru
http://www.legislature.ru
http://www.law-and-politics.com.
http://www.cer.uz
http://www.gov.uz
http://www.gki.uz
http://www.gs1 uz.org
http://www.lex.uz
http://www.wipo.org